

*"Yulduzlar aybdor" ( ing. "The Fault In Our Stars") - 2012 yilda yozilgan asar, amerikalik yozuvchi John Greeni 6-chi kitobi.*

Heyzel Greys Lonkaster, qalqonsimon bez saratoniga uchragan, 16 yoshli qiz. Onasini qistovi bilan har hafta bo'ladigan madad guruhiga qo'shilishga majbur. Kunlarning birida Heyzel madad guruhida Ogastusni uchratadi va ular yaxshigina do'stlarga aylanishadi.

## KIRISH

Ester Erlga atalgan suv ko'tarildi. Lolali golland okyeon tomon o'girildi: Ayiruvchi, birlashtiruvchi, zaharlovchi, berkituvchi, fosh qiluvchi, bostirib kelib, barchasini ozi bilan obketuvchi! - Bu nima? - so'radim men. -Suv, - javob berdi golland. - Va vaqt. Piter van Xuten. "Shoxona dard"

### 1 Bob

O'n yettinchi qishim so'ngida onam menda depressiya bor degan hulosaga keldi, sababi men kam ko'chaga chiqar, ko'p vaqtimni bir kitobni qayta-qayta o'qib, krovatda o'tkazar, kam yeb ortiqcha vaqtimni o'lim haqidagi hayollarimga bag'ishlardim.

Agar siz saraton haqida buklet yoki saytlarni ko'rgan bo'lsangiz, depressiya onkologiyaning ta'sirlaridan biri ekanligini bilsangiz kerak. Aslida bunday emas. Depressiya o'limning ta'siri (husususan saraton ham, umuman olganda bu kategoriyaga ko'p narsalarni qo'shsak bo'ladi). Onam meni doktorim Jimni yoniga olib bordi, u ham meni rostanam falaj qiluvchi klinik depresiyaga tushub qolyatganimni tasdiqladi va dorilarimga o'zlashtirishlar kiritib, menga haftalik madad guruhlariga yozilish majburiyatini qoydi.

Madad guruhi o'zini onkologiyada ruhiy sqilyotgan ishtirokchilarining tarkibi o'zgarib turishi bilan ajralib turardi. Nega tarkib o'zgaruvradi deb so'rayapsizmi? Bu esa o'limning ta'siri.

U yerga borish odamni hammasidan ko'proq ezardi. Yig'ilishlar xoch shaklidagi cherkovni podvalida bo'lib, u yerda bizlarni aynan xochning markaziga o'tkizdirishardi ( U yerda Iso Masihning yuragi joylashgan yerga to'g'ri kelarkan).

Men bu narsaga Patrik, bizalarni boshlig'imiz va yagona 18 yoshdan katta odam, har safar bizalar Iso Masihning yuragida o'tirganimiz va bundanda muqaddasroq joy topolmasligimiz haqida va'zlaridan bilganman

Isoning yuragida nima bo'lishiga kelsak: sakkizta yoki 10 ta bo'volib u yerga nogironlik aravachasida kirib chiqar, limonad bilan pechenye yer, aylana bo'lib o'tirvolib minginchi marta Patrikni boshidan o'tgan voqealar(ya'ni u ham tuhumdon saratoniga chalingani, hamma uni vafot etadi deb o'ylagani, o'zi qanday tushkunlikka tushib azoblangani, tuhumdonidan ayrilishga majbur bo'lgani va muhimi haliyam tirikligi) haqida gapiraverardi.